



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2026 - 2030-yillarga mo‘ljallangan Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 24-dekabrdagi PF-256-son Farmoni to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish hamda jamiyatda bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllariga bo‘lgan murosasizlik muhitini shakllantirish, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-dekabrdagi PF-256-son Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda:

ta’lim tashkilotlari (maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, ixtisoslashtirilgan hamda kasbiy ta’lim tashkilotlari) xodimlarining bolalarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etmaslik, zo‘ravonlikka uchragan bolalar to‘g‘risida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari va ichki ishlar organlarini xabardor qilish bo‘yicha majburiyatlarini odob-axloq qoidalari, mehnat shartnomasi va lavozim yo‘riqnomasiga kiritish;

ta’lim tashkilotlarida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikdan xoli muhitni yaratish;

ta’lim tashkilotlari pedagoglar va boshqa xodimlar tomonidan bolalarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etish holatini tashkilotlarning ichki mehnat tartib-qoidalari va mehnat shartnomalarida belgilanadigan mehnat majburiyatlarining bir marta qo‘pol ravishda buzilishlari ro‘yxatiga kiritish kabi vazifalar belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik) tizimidagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining namunaviy odob-axloq qoidalari 1-ilovaga muvofiq;

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining namunaviy ichki mehnat tartibi qoidalari 2-ilovaga muvofiq;

Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlarining lavozim yo‘riqnomalari 3-ilovaga muvofiq;

Umumiy o'rta ta'lim muassasasining namunaviy odob-axloq qoidalari 4-ildovaga muvofiq;

Umumiy o'rta ta'lim muassasasining namunaviy ichki mehnat tartibi qoidalari 5-ildovaga muvofiq;

Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) xodimlarining lavozim yo'riqnomalari 6-ildovaga muvofiq;

barcha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumiy o'rta ta'lim, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari xodimlarni ishga qabul qilish bo'yicha tuziladigan namunaviy mehnat shartnomasi 7-ildovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi (I.Sharipov), Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov):

barcha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalarining (keyingi o'rinlarda - tashkilotlar) namunaviy odob-axloq va ichki mehnat tartibi qoidalari (keyingi o'rinlarda - Qoidalar)ga izchil amal qilinishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;

o'quvchi-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bog'liq qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, zamon talablari asosida qoidalarini takomillashtirib, zarur holatlarda unga o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (L.Berdiyeva) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga nisbatan sodir etilishi mumkin bo'lgan zo'ravonlik holatlarining oldini olish, shuningdek pedagog xodimlarda ruhiy barqarorlikni ta'minlash, emotsional intellekt va o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan seminar-treninglar o'tkazish choralari ko'rsin.

5. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (S.Shakirova) uch kun muddatda mazkur buyruqdan kelib chiqib agentlik tasarrufidagi barcha ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining odob-axloq va ichki mehnat tartibi qoidalari, xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini qayta ko'rib chiqib, tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish choralari ko'rsin hamda belgilangan tartibda vazirlikka yozma axborot bersin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlari:

besh kun muddatda qoidalar, xodimlarining lavozim yo'riqnomalari va namunaviy mehnat shartnomasini tashkilotlarga yetkazilishini;

tashkilotlar direktorlari bir hafta muddatda qoidalarini mazkur buyruqqa muvofiq qayta ko'rib chiqib tasdiqlashini;

tashkilotlarda bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish uchun mas'ul bo'lgan shaxslarni tayinlanishini;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda muqobil shakldagi maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlarda bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarining oldini olish, xavfsiz va sog'lom tarbiyaviy muhitni

shakllantirish maqsadida “Mehrli qalb qo‘ynida – baxtli bola kamol topadi” aksiyalarini o‘tkazishni;

umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘quvchi-yoshlarga nisbatan zo‘ravonlikdan xoli muhitni yaratish maqsadida “Biz zo‘ravonlikka qarshimiz” aksiyalarini tashkil etish va o‘tkazishni;

Qoidalarining maqsad va vazifalarini tashkilotlarning barcha ta‘lim oluvchilari, ularning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, tarbiyachi, pedagog va boshqa xodimlarni maktab rahbariyati tomonidan tanishtirilishini hamda qoidalarini umumiy o‘rta ta‘lim muassasasi binosining ichki kirish (foye) qismiga alohida stend shaklida joylashtirilishini ta‘minlasin.

7. Axborot xizmati (D.Sobirova) mazkur buyruq bilan tasdiqlanayotgan qoidalarini vazirlikning rasmiy veb-sayti sahifalarida keng yoritсин.

8. Protokol bo‘limi (F.Keldibekov) bir kun muddatda ushbu buyruqni vazirlikning tegishli tarkibiy bo‘linmalari, Ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalariga yetkazsin.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi tizimiga oid ayrim buyruqlar 8-ilogaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari F.Boqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



E. Karimova

Toshkent sh.,
2026-yil 19 - yanvar,
18 - son